

O'ZBEK TILIDA BIRIKMA SIFATIDA QO'LLANILADIGAN QARG'ISHLAR VA OLQISHLAR (SINTAKTIK) VA ULARNING MORFOLOGIK (QO'SHIMCHA OLIISH) XUSUSIYATLARI

Hamdamova Fotima Raxmatulla qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada qarg'ishlarning sintaktik qurilishi, morfologik tarkibi xususida so'z boradi. Shuningdek, qarg'ishlarning semantik asosi, ularning subyekt hamda obyekti, ibora, to'liq gap va to'liqsiz gap shaklidagi qarg'ishlar, ma'nodosh, o'xshatish asosiga qurilgan qarg'ishlar haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so'z va iboralar: A.Omonturdiyev "Professional nutq evfemikasi" evfemizm, semantik ma'no, subyekt va obyekti, ibora, to'liq gap, to'liqsiz gap, diniy qarg'ish, sifatlash, ibora, ma'nodosh qarg'ishlar.

O'zbek tili qarg'ishlarga juda keng va boydir. Uning qo'llanilishi ham foydalanishi ham hatto yaratilishi ham mavjuddir. Masalan bitta so'zdan iborat qarg'ishlar yoki ikkita so'zdan iborat qarg'ishlar mavjuddir.

Ibora va birikma sifatida qo'llaniladigan qarg'ishlar ham mavjuddir. Asosan, qarg'ishlardan yoshi kattalar foydalanishgan. Xususan, o'zbek tilshunosligida sintaktika bo'limi bu gaplarning bir-biriga bog'lanishini o'rganuvchi yo'nalishidir. Men ushbu bo'limda qarg'ishlarning yasalishi, ularning birikishi haqida so'zlamochiman. Bu uchun avvalo, qarg'ishlarning grammatik va sintaktik qurilishiga alohida to'xtalib o'tishimiz kerak bo'ladi. Bu borada tadqiqot olib borgan olimlar salmog'i anchagina.

Masalan vohadoshimiz boysunlik A.Omonturdiyev o'zining "Professional nutq evfemikasi" asarida qarg'ish vositalarining paydo bo'lishi ularning yaralishiga oid bir qancha ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Olim qarg'ish vositalarining grammatik semantik qurilishi quyidagi shaklda ekanligini qayd etadi.

Qarg'ishlarning semantik asosi, asosan, uch komponentli bo'ladi.

1) qarg'ish va olqish subyekti qarg'ovchi yoki alqovchi 1-shaxs

2) qarg'ish va olqish obyekti 2-shaxs

3) o'zga 3-shaxs

Bu komponent qarg'ish va olqish bilvosita yo'llangan shaxs yoki predmetdir.

Qarg'ish va olqish vositalarining grammatik qurilishi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi.

1) Gapning kesimi III shaxs buyruq maylidagi fe'lining ay-in-gin-kin-sin-gir-kir-gur-kur qo'shimchalari bilan shakllanadi. Bevosita bu o'zaro bir birikmani hosil qiladi va ularning orasiga boshqa so'zni qo'yib bo'lmaydi. Ular mustahkam birlik ko'rinishiga kelgan qarg'ishlar sirasiga kiradi. Masalan qurib ketay, qurib ketgur, qurib


ketsin, baraka topay, baraka topsin, baraka topgur. Bunday o'ylab qaralsa, olqish va qarg'ish subyekti asosan I shaxs qarg'ish va olqish subyekti har uchala shaxs.

Masalan I shaxs ay (in) qo'shimchasi I shaxsniki bo'lsa-da u III shaxsga qaratilgan qarg'ish obyektini ko'rsatish uchun ham xizmat qiladi: tilim qursin, tiling qursin, tili qurisin kabi qarg'ishda obyekt mantiqan-har uchala shaxs ; qarg'ish - subyekti esa 1 shaxsdir. (1-rasm)

1-rasm

Qarg'ishlarning obyekt va subyekti

Aytib o'tish mumkinki, ba'zan qarg'ish subyekti ma'lum sabab bilan qarg'ish obyektiga aylanadi. Bunda ham qarg'ish vositasi ikki komponentli (subyekt va obyekt) hisoblanadi. O'lim qarg'ishlarni yuqorida keltirganimizdek, alohida tasniflarga ajratib



bo'lib chiqqan. Biz esa qarg'ish birikmalari va ularning qo'chimchalar olishi xususida biroz to'xtalib o'tamiz.

Ko'pincha qarg'ishlar III shaxsga nisbatan ishlatilgan sababi qarg'alayotgan kishi uzoqda qarg'ayotgan kishidan ancha uzoqda bo'lgan. Qarg'ishlarning katta qismini o'lim bilan bog'liq turlari tashkil etadi. *"Og'zinga suv tomizay"*-buyruq maylining I shaxsi qo'shilishidan hosil bo'lgan. Ya'ni men tomizay.

"Otangning(onangning) oldiga olib boray". Agar o'lgan bo'lsa. Bu qarg'ish birikmasida bor-ay I shaxs ma'nosini ifodalab kelgan.

"Jag' ya'ni iyagingni bog'lay" - bog'la-y I shaxs qo'shimchasi sanaladi.

"Bolalaring otamlab qolsin, xotining to'ramlab qolsin". Qol-sin III shaxsni ifodalab kelmoqda va bu qarg'ish birikma holatida bo'lib uni orasiga boshqa so'z qo'shib bo'lmaydi.

"Bolangni boqib olay". Ol-ay I shaxs.

"Tog'dan uch". III shaxs; *"Moling yettinga buyursin"*, buyur-sin II shaxs.

"Moling qirqingga so'yilsin" -sin III shaxs;

"Moling janozangga buyursin." buyur-sin III shaxs;

Sin -uchinchi shaxs birlik qo'shimchasi bilan yasalgan qarg'ish birliklari.

"Bolalaring otamlab qolsin", *"Bolalaring yetim bo'lsin"*, *"Moling janozangga buyursin"*, *"Moling qoraoshingga so'yilsin"*, *"Moling yomon kuningga buyursin"*

“Oting davrangga bog‘lansin”, “Yashil(yashin) ursin”, “Shu yog‘och tobut bo‘lsin”, “Tobutingni hammol ko‘tarsin”, “Tobuting yerda qolsin”, “Hayrotinga ketsin”, “Isqotinga ketsin”, “Soching taxtaga yoyilsin”, “Kafaningga ketsin”, “Jelagingni yuvg‘ich olsin”, “Murdasho‘rga bersin”, “Yuzingni yuvg‘ich ko‘rsin”, “Yuzingni go‘r ko‘rsin”, “Soqoling go‘rda chirisin”, “Boshing go‘rda chirisin”, “Ko‘zing tuproqqa to‘lsin”, “Go‘ring kuysin”, “Go‘r qabul qilmasin”,

Gur- (gir) II shaxs birlik ma‘nosidagi qarg‘ishlarning qo‘shimcha olishi

“Qorning nonga to‘ymagur”, “Ko‘nargi(uyitqi) ga zor bo‘lgur”, “Yaylov ko‘rmay o‘tgur”, “Biring ikki bo‘lmag‘ur”, “Qorning nonga to‘ymagur qorning oshga to‘ymagur”, “Cho” deyishga echki, “qo‘sh” deyishga qo‘y, “bosh” deyishga mol topmagur”, “Tomizg‘iga zor bo‘lgur”, “Ikkilanmagir”, “Tarkona bo‘lgur”, “Qirqqa ketgur”, “Yettiga ketgur”, “Qirilgur”, “Qirilib ketgur”, “Dori bo‘lgir”, “Dashtda qolgur”, “Kalla-pocha bo‘lgur”, “Isi-chiroq bo‘lgur”, “Janozaga so‘yilgur” “Qoraosh bo‘lgur”, “Tuxuming qurigur”¹.

Bu kabi qarg‘ishlarni evfemik qarg‘ish turlari deb atash bir muncha nojoiz bo‘lishi mumkin. Sababi o‘lim bilan bog‘liq qarg‘ishlarda qanday qilib yumshoqlik bo‘lishi mumkin.

1) evfemik ma‘no mezonini belgilashda tabu tushuncha me‘yorini belgilashda tabu tushuncha o‘rnida qo‘llanilayotgan vositalarning nisbatan yumshoqlik darajasi tushuniladi.

2) evfemik qarg‘ish tushuncha tabu (o‘l, o‘lgin, o‘lsin) ya‘ni denotatning bevosita ifodasi emas, balki konotati ya‘ni ko‘chimlashgan, ramziylashgan tasviriy ifodasidir.

3) qolaversa, qarg‘ish tushunchasi qanchalik evfemiylashavermasin, uning salbiy, noxush ta‘siri inson ongidan chiqib ketmaydi.

4) evfemik qarg‘ish vositalarining shakllanishida qon, qabr, kafan, taxta, suv, yuvg‘ich, g‘assol, tobut, hayrot, aza, motam, qirq, yil, yetti singari tayanch so‘zlar ishtirok etadi va ular ham o‘limni eslatib turadi.

Professor B. Sarimsoqov yozishicha, qarg‘ish bu qadimiy, eski bo‘lib turkiy xalqlar tilida yomon ma‘noni ifodalovchi qir-fe‘li o‘zagiga “ga” II shaxs buyruq maylining qo‘shimchasini va ish harakatni ifodalovchi “ish” qo‘shimchasining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan kir+ga/ kir+ga+ish *kirgaish* qarg‘ish atamasi kelib chiqqan deb e‘tirof etadi.² S.Ro‘zimboyev va X.Ro‘zimetovlar³ ham qarg‘ish so‘zining etimologiyasi yo‘qotish, tugatish ma‘nosini ifodalovchi qir fe‘lidan hosil bo‘lganligini ta‘kidlashadi.

¹ Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan. 2007

² B Sarimsoqov. B. Olqishlar va qarg‘ishlar. — Toshkent. 1988, B. 143

³ Ro‘zimboyev. S va Ro‘zimetov. X. Folklor atamaları qisqacha lug‘ati B.3. – Urganch, 2007

Qomusiy olim Mahmud Qoshg'ariyning yozishicha, XI asrda yashagan turkiy qavmlar nutqida mana shu so'z asosida yaratilgan "qarg'ak" (qarg'ish va so'kish) va "kargish" (qarg'ish, la'natlash) singari atamaları qolaversa, "qargaldi", "qargandi", "qargadi" fe'llari shuningdek, qargish-kishi qarg'algan, la'natlangan kishi singari bir qancha birikmalar xalq tilida mavjud bo'lgan. Qoshg'ariy qarg'ak atamasini qarg'ish so'ziga ma'nodosh deb ta'rif beradi deb ta'kidlaydi. Devon lug'otit turkni o'zbek tiliga tarjima qilgan olim S Mutalibov *qargaldi, qargandi, qargadi* atamaları rus tilidagi "proklinat" so'zining ma'nosini anglatishini aytib o'tgan.⁴ O'zbek xalq qarg'ishlarining kompozitsion tuzilishi o'zgachadir. Biz uni grammatik tarkibi jihatdan olib qaralganda qarg'ishlar quyidagi ikki asosiy ko'rinishlarga egadir:

1.To'liq gap shaklidagi qarg'ishlar. *"Iloyo meni qarg'agan tillaring uzilib tushsin", "U dunyo bu dunyo kosang oqarmasin", "Sochingni taxtaga yoyay", "Go'shtingni itlar yesin", "Iloyo, yettinga kirmay, qabringda yantoq o'ssin", "Qo'shganing bilan qo'shmozor bo'l", "Joyi rastoringa olib borib qo'yay",*
2.To'liqsiz gap shaklidagi qarg'ishlar. Masalan, *"Oqpadar", "Yashamagur", "O'l", "Qurisin", "O'lgur", "Qurigur", "Yashamagur", "Qirilgur", "Jalollagur", "Ikkilanmagur".*

Ma'nodosh bo'lgan qarg'ishlarga misollar:

"Sabil qolgur"- "Ordono qolgur" "Egasiz qolgur"

O'zbek tilining izohli lug'atida "ordona" so'ziga egasiz qolgan, egasi o'lgan, sabil deya ta'rif bergan.⁵ Buni A.Qahhor ijodidan misol keltirish bilan isbotlaymiz. *"Qurib ketsin!-dedi juvon yig'lamsirab -O'qishing ordono qolsin, Maston!"*.

Sabil so'zi qadimda jang maydonida qon hidi va o'liklar hididan gangib yurib egasiz qolgan ot, it, mushuk va boshqa hayvonlarga nisbatan ishlatilgan ekan. Ular o'sha hayvonlarni o'ziniki qilishni xohlashmagan sababi hayvonning egasiga o'xshab o'lib ketamiz deb o'ylashgan. Shu sababli xalq orasida "sabil qolgur" yoki "ordono qolgur", "egasiz qolgur" degan qarg'ish turlari ma'nodoshlikni hosil qiladi. *"Burdalab yesin – tozim" – "Go'shtingni itlar yesin"- "Suyagingni itlar g'ajisin"*

Qadimgi manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra baqtiryaliklar o'lgan odamlarni itlarga tashlashgan ekan. Itlar mayyitni yeb bitirishlari uchun ustiga moy ham sepishar ekan. Keyinchalik Aleksandr Makedonski bostirib kelgandan so'ng bu odatlarni bekor qilgan ekan. Qadimda mavjud bo'lgan odatlar asrlar oshib odamlar nutqida saqlanib qolgan⁶.

Eng yomon qarg'ish turlaridan biri bu insonga o'lim tilashdir va bu og'ir shakllaridan hisoblanadi.

⁴ Qoshg'ariy M. Devon-u lug'atit turk.Indeks. – Toshkent.Fan 1967, B 354. II

⁵ O'zbek tilining izohlin lug'ati. Ikki jildlik.1-jild.. – Moskva:Rus tili, 1981

⁶ Рапопорт Ю.А. Из истории древнего Хорезма.-Москва:Наука 1971.-С.30.

“Rizqing tirtayib o‘l”, “Qo‘shganing bilan qo‘shmozor bo‘l”, “Avlod ajdodiga o‘t ketsin”, “Qirqingni yey”, “Sadringa kiray”, “Tobutingni ko‘taray”, “Janozangni o‘qiy”, Sochingni taxtaga yoyay”, “Mozorga olib boray”, “Suvingni quyay”, “Chapaklab qolay”, “Joyi rastoringa qo‘yib kelay”, “Tuprog‘ingdan olay”.

Bu turdagi qarg‘ishlarning ma‘nolari bitta bo‘lib ular kishiga o‘lim tilash bilan bog‘liq sanaladi. Ularning turini yana ko‘p keltirishimiz mumkin. *“Biring ikki bo‘lmay, yelkang kun ko‘rmay, vataning vayron bo‘lsin” – “Yeganing yelim, ichganing yiring bo‘lgur”*

Har ikki qarg‘ish bir-biriga ma‘nodosh bo‘lib, birinchisida keskin buyruq, ikkinchisida esa istak mayli ifodalangan. Bu qarg‘ishda kishining hayoti kambag‘illikda o‘tishi tasvirlangan.

Birikma ko‘rinishidagi qarg‘ishlar:

“Oyog‘ing borib, boshing bilan qayt”, “Oq tosh, qora tosh bora-bora o‘makon osh”
“Xalil akaning iti” holida bo‘lgan birikma keyinchalik gaplologiya degan fonetik o‘zgarishga uchrab turg‘un birikma holiga kelgan “Xalakaning itiday bo‘lmay, o‘l”,
“E, itga o‘xshab sandiraqlamay o‘l”

Diniy tasavvurlar bilan bog‘liq qarg‘ishlar:

“Xudoyo xudovondo, uying kuygur” , “Iloyo qur‘on urib, payg‘ambar turtsin”,
“Choryorlarning qahriga uchragur”, “ “Xudoyo, Olloh joningni olsin”, “Ilohim, beting qora bo‘lsin”, “Iloyo, Alvastiga yo‘liqqur”, “Olloh tos tepangdan ursin” degan qarg‘ishning ma‘nosiga to‘xtalsak, Olloh arshi-a‘loda, yetti qavat osmonnig ustida o‘tiradi, degan qarash mavjud bo‘lgan. “Tostepa” leksemasi boshning yuqori qismi ma‘nosida qo‘llangan.

Ibora so‘z bilan ifodalangan qarg‘ishlar:

“Olloh tos tepangdan ursin”, “Kayvoni qurg‘ur”, “Ko‘zing oqib tushsin” ,
“Ko‘zing o‘yilsin”, “Yeganing yelim, ichganing iring bo‘lsin”, “Jin ursin”, “to‘ng‘iz qo‘pgur”.

Jonlantirish asosida hosil bo‘lgan qarg‘ishlar:

Bunday qarg‘ishlarda insonga xos xususiyatlar ko‘chiriladi. Bunda qarg‘ishlar xalq tiliga qadimda mavjud bo‘lgan animistik, totemistik, fetishistik qarashlar natijasi o‘laroq paydo bo‘lgan. Masalan,

“Og‘zingdan chiqqan qarg‘ishing yoqangga yopishsin”, “Ajaling bo‘g‘zingdan tutsin”, “Iloyo, baxting hech qachon kulmasin”.

O‘zbek xalq qarg‘ishlaridagi fe‘l kesim ifodalaydigan shaxs-son va mayl to‘g‘risida shuni aytish mumkinki, ular ko‘pincha birlik, kamdan-kam hollarda ko‘plik sonda hamda asosan ikkinchi, ba‘zi hollarda esa birinchi va uchinchi shaxs ish-harakatni anglatadi. Misollar keltirib o‘tamiz:

Birlikda: *“Xarom o‘lgur”, “Joning chiqqur”, “Go‘ringda tikan unsin”.*

Ko‘plikda: *“Jigaringni kuchuklar yesin”, “Miyangni quzg‘unlar cho‘qisin”*

Ikkinchi shaxsda: “*Xa, yashamagur*”, “*Xudoyo, go‘ringda bo‘kir*”, “*Zor qaqshab qolgur*”, “*Betingdan buzulgur*”, “*Xudoyo, befarzand o‘t*”

Birinchi shaxsda: “*Kafaningni o‘zim bichay*”, “*Iloyo o‘liging ustida o‘tiray*”

Uchinchi shaxs: “*Uyi kuysin*”, “*Tili uzilib yerga tushsin*”, “*Topgani uyiga buyurmasin*”, “*Tovoni qonamasin*” (farzand tug‘may o‘tsin) ⁷.

Xalq qarg‘ishlarining doimiy imperativ ohangi har uchala shaxsdagi buyruq-istak mayli sababli namoyon bo‘ladi. Undagi fe‘l kesimdan anglashiladigan nisbat asosan o‘zlik, kamdan kam holatlarda bosh nisbatdadir. Misollar:

1. O‘zlik nisbatda : “*Yigit o‘lgur*”, “*O‘smay, unmay oq bo‘lgur*”, “*Qoningga bo‘yalgur*”, “*Qorning oshga to‘ymagur*”.

2. Bosh nisbatda: “*Go‘ring ochilib qolsin*”, “*Darding ajalga aylansin*”⁸

Keltirilgan misollardan qarg‘ishlardagi fe‘l kesimning bo‘lishli va bo‘lishsiz, o‘timli va o‘timsiz ko‘rinishlarda ifodalanishi ayon bo‘lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan. 2007
2. B Sarimsoqov. B. Olqishlar va qarg‘ishlar. — Toshkent. 1988, B. 143
3. Ro‘zimboyev. S va Ro‘zimetov. X Folklor atamalari qisqacha lug‘ati B.3. — Urganch, 2007
4. Qoshg‘ariy M. Devon-u lug‘atit turk. Indeks. — Toshkent. Fan 1967, B 354. II
5. O‘zbek tilining izohlin lug‘ati. Ikki jildlik. 1-jild.. — Moskva: Rus tili, 1981
6. Рапопорт Ю.А. Из истории древнего Хорезма.-Москва: Наука 1971.-С.30.
7. Eshboyeva F O‘zbek xalq qarg‘ishlari janr xususiyatlari. — Toshkent. 2008.

⁷Eshboyeva F O‘zbek xalq qarg‘ishlari janr xususiyatlari. — Toshkent. 2008.

⁸Eshboyeva F O‘zbek xalq qarg‘ishlari janr xususiyati. — Toshkent: Fan. 2008